



TALABALARDA KINETIK INTELEKTNII RIVOJLANTIRISHGA OID SHARQ VA G'ARB OLIMLARINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK QARASHLARI

Umrzoqova S.X.

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: klassifikatsiya, aql, miya, kreativ, intellekt, idrok, iste'dod, ijodiy, xissiyot, axloqiy, shaxs, innovatsion, qobiliyat, ong, tafakkur, estetik, optimal. Заключение:

Ключевые слова: классификация, интеллект, мозг, творчество, интеллект, восприятие, талант, творческий, чувственный, моральный, индивидуальный, инновационный, способности, разум, мышление, эстетический, оптимальный.

Key words: classification, intelligence, brain, creative, intelligence, perception, talent, creative, personality, moral, personality, innovative, ability, mind, thinking, aesthetic, optimal.

Maqolada Sharq va G'arb olimlarining intellekt va ijodiy qobiliyatni rivojlantirish xususidagi pedagogik-psixologik nuqtai nazarlari tahlili keltirilgan. Shuningdek, talabalarda ijodiylikni rivojlantirish bo'yicha ilmiy tavsiyalar berilgan. Ta'lim, fan va innovatsiya Mamlakatimizda oliy ta'lim muassasalarida raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash mazmunini jamiyatni kadrlarga bo'lgan ijtimoiy buyurtmasi, fan va texnika yutuqlaridan kelib chiqqan holda, takomillashtirishga e'tibor qaratilmoqda. Malakali mutaxassis qachon tayyorlanadi? Qachonki, kreativ fikrlaydigan yoshlar salohiyati va iqtidori rivojlantirilsa. Kreativ fikrlash talaba shaxsida intellektning rivojlanganligiga bog'liqdir. Intellekt tarkibiga idrok qilish, xotirlash, fikr yuritish, so'zlash hamda psixik jarayonlar kiradi. Intellektning rivojlanishi tug'ma iste'dod, miya imkoniyatlari, jo'shqin faoliyat, hayotiy tajriba kabi ijtimoiy omillarga bog'liq. Intellekt saviyasi, darajasi inson faoliyatining natijalariga, shuningdek, psixologik testlarga ko'ra aniqlanadi. Intellekt – bu inson va hayvonlarning yangi muhitga moslashishi hisoblanadi. Aql – insonning fikrlash qobiliyati bo'lib, “anglash, tushunish” degan ma'nolarda keladi. Tushunib yetish aqliy qobiliyatning mustahkam tuzilmasi hisoblanadi. Uzoq asrlar davomida Sharq mutafakkirlari va G'arb olimlari yoshlarda aqlning, ya'ni

intellekt rivojlanishiga oid muttasil ilmiy-falsafiy munozaralar yuritishgan. Biroq ilmiy bahslar qanchalik darajada keskin yoki murakkab bo‘lmasin, ularda o‘ziga xos mutlaq yakdillik mavjud. Intellect shaxsgagina xos bo‘lgan xususiyat sanaladi. Ayrim adabiy yoki fantastik asarlarda insondagi ong va tafakkur badiiy to‘qima yoki fantastik uydirma degan g‘oyalar ham paydo bo‘ldi. Intellect lotincha so‘z bo‘lib, bilish, tushunish, idrok qilish, ya’ni insonning aqliy qobiliyati; hayotni, atrof muhitni ongda aynan aks ettirish va o‘zgartirish, fikrlash, o‘qish, o‘rganish, dunyoni bilish va ijtimoiy tajribani qabul qilish qobiliyati; turli masalalarni hal qilish, bir qarorga kelish, oqilona ish tutish, voqea hodisalarni oldindan ko‘ra bilish layoqati. Sharq olimlaridan Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Kaykovus, Alisher Navoiy va boshqalarning pedagogik qarashlarida talaba yoshlarda intellekt rivojlanishiga oid ilmiy farazlar ilgari surilgan. Dunyoda “ikkinchi muallim” taxallusini olgan buyuk olim Forobiy “Baxt saodatga erishuv yo‘llar haqida risola” asarida odamlarni turli belgilarga qarab guruhlariga ajratadi. Bunda u kishilarning diniy mazhabi, millati, irqiga qarab emas, balki tabiiy xususiyati, qobiliyati, aqliy iqtidori, bilim ko‘nikmalariga e’tibor berishlik zarurligini ta’kidlaydi. Darhaqiqat, talabalarda ijodiy qobiliyat va aqliy salohiyatni oshirish orqali ta’lim sifatiga erishiladi. Bo‘lajak pedagoglarda intellekt qay darajada rivojlansa, pedagogik faoliyati samarali amalga oshadi. Beruniy inson va axloqiy tarbiya haqida fikr yuritarkan, “Insonga yer yuzini obod etish va uni boshqarib turishi uchun aql-zakovat ato etilgan, shuning uchun har bir inson yuksak axloqli bo‘lishi lozim”, deydi. Ibn Sino “Hay ibn Yaqzon” asarida ilm-ma’rifatni o‘rganish, tafakkur qilib zarur bo‘lgan va bilishi mumkin bo‘lgan narsalarni o‘qishga kirishgani, bu yo‘lda aqlni ishga solib, o‘zini yomonliklardan chetlashtiradigan turli xususiyatlarini bilib olganligini qayd etadi. Shuningdek, insondagi yomon illatlarni ham bartaraf etishda ilmu fan, ziyoning ahamiyati, insondagi aql-tafakkur quvvatining yomon illatlardan qutulishi, o‘zligini anglash vositasi ekanligini asoslaydi. Talabalarda intellektni rivojlantirish uchun ularni ko‘proq mustaqil fikrlash, ta’limiy vaziyatlarda uchraydigan muammolarni yecha olish ko‘nikmalarini shakllantirish zarur. Kaykovus “Qobusnoma” asarida aql haqida fikr bildirib, inson qobiliyatining bir xil emasligini, inson aqlining tug‘ma, ya’ni azaliy, tabiiy va kasbiy (muktasib -o‘rgatilgan aql) kabilarga bo‘linishini bayon etadi. Abdurahmon Jomiy “Bahoriston” asarida ilmni behuda egallamaslik, har bir shaxs jamiyat va o‘zi uchun foydasi tegadigan ilmlarni egallashi zarurligini ta’kidlaydi. Bilimning inson hayotidagi ahamiyati hamda ijtimoiy jamiyat taraqqiyotini belgilashdagi o‘rni va rolini ochib berish bilan birga, har bir kishi tomonidan ma’lum hunar sirlarini o‘zlashtirish foydadan



xoli bo‘lmasligini uqtiradi . Alisher Navoiy ilm-fanning inson kamolotidagi o‘rni, bilimlarni o‘rganish asosida hosil bo‘lgan aql va idrokning inson hayotidagi ahamiyati hamda aqliy tarbiya, uning mohiyatini yoritishga alohida e‘tibor qaratadi. Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, talabalarda intellektual salohiyatni taqozo etuvchi masalalarni mustaqil hal etish, o‘zi qaror qabul qilish va vaziyatga qarab xatti-harakatlarini muvofiqlashtira olish kabi ko‘nikmalarni shakllantirish muhim degan xulosaga kelish mumkin. Qadimgi Yunon olimi Aflotun “Davlat” asarida intellektni aqliy va hissiy bilish tarzida klassifikatsiya qiladi. Aqliy bilish hissiy idrokdan xoli bo‘lib, u aqlning o‘zi uchun amalga oshiradigan intellektual faoliyat turidir. Tafakkurni his qilish jarayonida aql, idrok qatnashadi, biroq u aqliy bilishdek aql uchun emas, balki hissiy narsalar, obrazlarni, borliqni anglashdir. Arastu “yoshlarga jismoniy, axloqiy, aqliy tarbiya berish kerak, jonning oliy tomonlarini, ya’ni aql va irodani kamol toptirish muhim”, deydi. Alloma inson uchun muhim bo‘lgan aqliy fazilatlarga bilim, donishmandlik, fahmlash va boshqalarga ham ahamiyat berish lozimligini uqtiradi. Ammo axloqiy fazilatlar aqliy fazilatlarga bo‘ysungan holda ifodalanadi. Olim insondagi faqat aqliy faoliyatni tan oladi. Demokrit fikricha, “Aql to‘g‘ri xatti-harakatlarga yo‘naltirilmog‘i, bu esa bilimni doimo mukammallashtirib borish, tabiat qonunlari va odam xulqini o‘rganish zarur”. Talabalarda intellekt darajasi va ijodiylik o‘rtasidagi munosabat ularning shaxsiy xislatlari va ularning moslashuv usullariga ta’sir qiladi. Ijodiylikning nimaligini tushunishning o‘zi ijodiy harakatni talab qiladi. Ijodiylik qandaydir ahamiyatli va yangi narsaga erishish ya’ni insonlarning dunyoni o‘zgartirish uchun qilgan harakatlari sifatida tushuniladi. Shunday ekan, talabalarda intellektual-ijodiy qobiliyatning shakllanishida o‘quv-tarbiyaviy jarayon va atrof muhitning roli ham muhim sanaladi. Psixolog olimlar V.Shtern, J.Piaje, D.Veksler va boshqalar intellektga insonlarni yangi hayotiy sharoitlarga moslashashtiruvchi umumiy qobiliyat sifatida qaraydi. Ularning tadqiqotlari amerikalik maktab o‘quvchilarini longityud metodi orqali IQ intellekt koeffitsentini aniqlashga qaratilgan. Kuzatuvlar yillar davomida intellekt koeffitsenti yuqori bo‘lgan sinaluvchilar hayotda, faoliyatda yuqori ko‘rsatkichlarga erishganligini ko‘rsatgan. Demak, oliy ta’lim jarayonida o‘quv mashg‘ulotlari, amaliyot va ijodiy to‘garaklar talabalarning aqliy salohiyatni oshirishga qaratilishi muhim. Bu esa professor-o‘qituvchilarga katta ma’suliyat yuklaydi. Satosi Kanadzava umumiy intellektni aqlning bir turi sifatida ta’riflaydi. Uning fikricha, “umumiy intellekt bizga kundalik hayotda mavjud muammolarni hal qilishda yordam beradi”. Talabalarni pedagogik faoliyatida duch keladigan turli vaziyatlarning yechimini topishga o‘rgatishda malakaviy

amaliyotlar samara beradi. Ular amaliyot davrida ta'lim-tarbiya jarayonini kuzatish bilan birga, bevosita ishtirok ham etadi. Natijada, amaliy tajribaga ega bo'ladi. Ch.Spiremen va Terstoun tomonidan akademik qobiliyatning namoyon bo'lishi kuzatilgan. Ular: "shaxs biror kognitiv sohada muvaffaqiyatga erishayotgan bo'lsa, demak, u boshqa sohalarda ham xuddi shunday zafarlarga erishadi", degan g'oyani ilgari suradi. Bu aqliy jarayonlar, muammolar, turli masalalar va vaziyatlarni individual, samarali idrok qilish yo'li bilan faol hal qilish, ijodiy topshiriqlar va umuman ijtimoiy-madaniy hayotga samarali qo'shilish, muvaffaqiyatli moslashish qobiliyatidir. Intellektning tuzilishi quyidagilarga bog'liq: - insonning emotsional-irodaviy xususiyatlari. - amaliy va nazariy o'zaro munosabatlar qobiliyati. - uning hayotiy sharoitlari va hokazo. Intellekt – tafakkur – tushunish, tushunib yetish – aqliy qobiliyatlar, "idrok qilish faoliyati jarayoni", tushunish, mulohaza qilish, aqliy xulosa chiqarish yordamida idrok qilish faoliyatining tarkibiy qismlari bo'lib, u shaxsdan "tushunish va fikrlash qobiliyati"ni talab etadi. Oliy ta'lim jarayonida talabalarda intellektual-ijodiy qobiliyat bosqichma-bosqich rivojlantiriladi: 1-bosqich. Talabalarining shaxsiy qiziqishlarini aniqlash - bu o'quv jarayonini yanada yaxshi rejalashtirish va tashkil etish bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ijodiy qobiliyatni rivojlantirish tizimidagi birinchi bosqich. Talabaning hayotiy tajribasiga va uning mavzuga bo'lgan ilmiy qiziqishiga tayanib, tashabbuskorlik, diqqatni rivojlantirish, talabaning muammoni hal qilish bo'yicha o'z qarashlarini taqdim etishini rag'batlantiradi. 2-bosqich. Vazifa va loyihani erkin tanlash - o'quv amaliyoti vazifasini aniqlash, muammo yechimini izlash. Shu bilan birga, har bir talabaning o'ziga xos qiziqishlari va afzalliklari bilan bog'liq bo'lgan muammoli materialni tanlash kerak. O'qish vaqtining cheklanganligi sababli individual yondashuv har doim ham mumkin emasligiga qaramay, uni jamoa ishi bilan almashtirish mumkin, bu yerda erkin tanlov usuli ajralmas bo'ladi, unda mos guruh va vazifalar bilan guruhni tanlash mumkin. 3-bosqich. Ijodiy muhit yaratish -mazkur bosqichda talabalar turli mavzularda ijodiy loyiha olib boradi. Bunda talaba faoliyatini rag'batlantirish va do'stona munosabatlar tashkil etilishi zarur. 4-bosqich. Motivatsion-bu bosqich maxsus sharoitlar yaratilishi bilan tavsiflanadi, bunda talabalarda nafaqat natijaga, balki ushbu natijalarga erishish jarayoniga ham maksimal qiziqish shakllanadi. O'z harakatlariga qiziqmasdan, motivatsiya pasayadi, uni salbiy yoki ijobiy mustahkamlash bilan almashtirish mumkin emas. Rejalashtirishning yakuniy natijasi ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning ushbu bosqichida usul va metodlarni tanlashga bog'liq. 5-bosqich. Talabalarni hamkorlikka yo'naltirish-bunda ta'lim oluvchidan ichki imkoniyatlarini namoyon etish talab etiladi.

